

Utkir XUDAYBERDIYEV,

Termez iqtisodiyot va servis universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: utkir_xudayberdiyev@tues.uz

Tel: +998999470183

TISU professori, t.f.d E.Qobulov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SOURCE STUDIES OF THE EASTERN BUKHARA EMIRATE

Annotation

In this article, the analysis of source studies of the history of the eastern regions of the Bukhara Emirate, the coverage of information about the strategic importance of the eastern regions of the Bukhara Emirate in the works of local historians was studied. In addition, research on these sources was carried out during the Soviet era and in the years of independence. In the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century, the collection of works and information belonging to the first period, created by direct witnesses and participants of the historical events of this period, is considered rare written sources in terms of their value and importance.

Key words: Source, source studies, Eastern Bukhara beklilik, Mirzo Salimbek, analysis, Surkhan oasis, muddaris, Kushbegi archive, Denov, Boysun, Sherobod, bek.

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

В данной статье изучен источниковедческий анализ истории восточных областей Бухарского эмирата, освещение сведений о стратегическом значении восточных областей Бухарского эмирата в трудах краеведов. Кроме того, исследования этих источников проводились и в советское время, и в годы независимости. Во второй половине XIX - начале XX века собрание произведений и сведений, относящихся к первому периоду, созданное непосредственными свидетелями и участниками исторических событий этого периода, считается редким письменным источником с точки зрения их ценности и важности.

Ключевые слова: Источник, источниковедение, беблики Восточной Бухары, Мирзо Салимбек, анализ, Сурханский оазис, мударис, Кушбегский архив, Денов, Байсун, шеробод, бек.

BUXORO AMIRLIGI SHARQIY BEKLIKLARINING MANBASHUNOSLIGI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi sharqiy hududlari tarixining manbashunosligi tahlili, Buxoro amirligi sharqiy hududlarining strategik ahamiyati haqidagi ma'lumotlarining mahalliy tarixchilar asarlarida yoritilishi o'rganildi. Bundan tashqari, ushu manbalarni o'rganish borasida sovetlar davrida va mustaqillik yillarida ham ilmiy izlanishlar olib borilganligi, mavzuga oid ilmiy tadqiqot va adabiyotlar guruhga bo'lib tadqiq qilindi. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida mazkur davr tarixiy voqealarining bevosita guvohlari va ishtirokchilari tomonidan yaratilgan birinchi davrga mansub asar va ma'lumotlarning yig'indisi hozirgi kunda o'z qimmatini va muhimligi jihatidan nodir yozma manbalar hisoblanishi maqolada tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Manba, manbashunoslik, Sharqiy Buxoro bekliliklari, Mirzo Salimbek, tahlil, Surxon vohasi, muddaris, Qushbegi arxivi, Denov, Boysun, sherobod, bek.

Kirish. Buxoro amirligi sharqiy hududlarining strategik ahamiyati haqidagi ma'lumotlarini yoritish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, bunday tadqiqotlarni Rossiya imperiyasi amaldorlari va harbiylarining o'z ma'lumotlari hamda esdaliklarida uchratish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot hududi haqida sovetlar davrida va mustaqillik yillarida ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida mazkur davr tarixiy voqealarining bevosita guvohlari va ishtirokchilari tomonidan yaratilgan birinchi davrga mansub asar va ma'lumotlarning yig'indisi hozirgi kunda o'z qimmatini va muhimligi jihatidan nodir yozma manbalar hisoblanadi. Ular ilmiy jamoatchilik tomonidan yozma manba sifatida e'tirof etilayotganligini inobatga olib, ularni ham birlamchi manbalar qatoriga qo'shishga qaror qildik va ulardan manba sifatida foydalandik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yozishda mahalliy yozma manbalar, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri yoritilgan va o'sha davrda yaratilgan mavzuga oid tarixiy tadqiqotlar tashkil qiladi.. Ushbu asarlar mualliflari to'g'ridan-to'g'ri o'sha davrni o'z ko'zi bilan ko'rgan va bevosita voqealar ishtirokchilari tomonidan yaratilgan asar va ma'lumotlar jamlanmasi bo'lib, hozirgi kunda o'z qimmatini va muhimligi jihatidan ushbu asarlar nodir qo'lyozma manbalar va tadqiqotlar darajasida hisoblanadi. Jumladan, mahalliy yozma manbalardan Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasini" yoki "Tarixiy Rahimxoniy" ([Muhammad] Rahimxon tarixi), Mullo Ibodulla va Mulla Muhammad Sharifning "Tarixi amir Haydar" (Amir Haydar tarixi), Mir Olim Buxoriyning "Fathnomayi sultoniy" (Sulton fathnomasi), Ahmad Mahdumi Donishning "Mang'itlar saltanati sulolasi tarixidan qisqacha risola", "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" (1885 yildan keyin yozilgan), "Mang'itlar sulolasi tarixi" Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy (1838/39-1914 yildan keyin)ning "Mang'it saltanati tarixi", Mirza Salimbekning (to'liq ismi: Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim)ning "Salimiy tarixi", Muhammad Ali Baljuvoniyning "Foydali tarix" nomli asarlaridan ham tarixiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola yozishda umum qabul qilingan taqqoslash, tarixiylik, manbashunoslik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XVII asr oxiri - XX boshlarigacha Buxoro amirligi Sharqiy bekliliklarining manbashunosligi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Vohaning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga oid zarur ma'lumotlar va mang'itlar hukmronlik qilgan hududlar geografiyasi, topografik hamda etnik nomlari Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'itlar saltanati tarixi" asarida keltirilgan [1]. Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy [1839 – Buxoro, Bo'ston qishlog'i (hozirgi Qiziltepa tumani) — 1908] — tarixchi olim, xattot. Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Ustozi Qozi Sa'diddin Mohir maslahati bilan Somiy — «olijonob, yuksak» taxallusini olgan [2]. U dastlab Buxoro amirlari saroyida, xususan amir Muzaffar (1860-1885) va amir Abdulahad (1885-1910)lar hukmronligi davrida saroy munshiyasi vazifasida ishlagan.

Mirzo Abdulazim Somiyning xabar berishicha, Amir Muzaffar Sharqiy Buxoro erlariga rus gubernatori bilan do'stona munosabatni o'rnatgach, qo'ldan ketgan Zarafshon vohasi hududi o'rnini to'ldirish, ikkinchidan Abdulmalik to'rani qo'llab-

quvvatlagani, uchinchidan hududning strategik nuqtaligini hisobga olgan holda o'zining harbiy yurishlarini boshladi. Sherobod bekligi qo'ng'irotlari va saroy qabilalaridan o'ch olish uchun davstavval Qarshi begi etib Abdumo'minto'ra va G'uzor hokimi etib Yoqub qo'shbegini tayinlab ularni harbiy qurollangan qo'shin bilan Sherobodga jo'natdi.

Mirzo Abdulazim Somiy mazkur asarining ko'p joylarida mahalliy hukmdorlar, bek va amlokdorlar haqida ham ma'lumot beradi. Mahalliy tarixiy muarrixlar asarlarida tarixiy shaxslar haqida ijobiy fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Buxoro amirligining markazidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot tarixini yoritishga qaratilgan. Bu holat uchinchi guruhga mansub adabiyotlardagi ko'pchilik ma'lumotlar va xulosalarga tanqidiy nuqtai nazardan baho berish, tahlil qilishni taqozo etadi. Bu tadqiqotlarda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi Surxon vohasi beklklarining tutgan o'rni (Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari asosida) kam yoritilgan bo'lib, ularning ba'zilar o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini yoritishda muhimdir. Sovet davriga oid ilmiy izlanishlarning asosiy qismi Buxoro amirligining sharqiy hududlari, ya'ni sharqiy Buxoro bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tashkil qiladi [3, 4, 5].

Mazkur davr tarixnavislik maktabining eng yirik vakillaridan biri Ahmad Donish taxallusi bilan mashhur bo'lgan ma'rifatparvar Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqdir. Ahmad Donish Maxdum ibn Nosir (1827 - Buxoro -1897) yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. Mudarris oilasida tug'ilgan. XIX - asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. U o'z zamonasining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egallagan bo'lib, 1850-yillarda Amir Nasrulloh (1826-1860) saroyida xattot va me'mor vazifalarida ishlab, keyinchalik bosh me'mor darajasiga ko'tarildi. Uch marotaba Rossiya imperiyasiga safar qilgan Ahmad Donish yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan, nisbatan ilg'or mamlakat Rossiya bilan tushkunlikni boshidan kechirayotgan Buxoro jamiyatini taqqoslab, amirlikda islohotlar o'tkazish lozim, degan qarorga keladi. "Risola dar nazmi tamaddun va taovun" (Madaniyat va o'zaro ko'maklashuv haqida risola) nomli asarini yozib, uni amirga taqdim etadi. Tadqiqotchilar bu asarni "Siyosiy risola" deya nomlashgan. Uning ushbu risolasida Buxoro davlati va jamiyatini qonuniylik va insonparvarlik asosida isloh qilish g'oyasi dadili ilgari surilgan. Ahmad Donishning bu ilg'or fikrlari tabiiyki amirga yoqmaydi va uni "aql o'rgatish"da ayblab 1882-yil G'uzorga qozi etib tayinlaydi. Bu bilan Ahmad Donish poytaxtdan uzoqlashtiriladi. Amir Muzaffar vafotidan keyin Buxoroga qaytgan Ahmad Donish umrining qolgan qismini faqat ijodga bag'ishlaydi.

Ahmadi Maxdum Donishning Buxoro amirligi tarixiga oid «Mang'itlar sulolasi tarixining risola yoki qisqacha mazmuni» asari «Tarixiy risola» nomi bilan ham yuritilib, unda mutafakkirning siyosiy-ijtimoiy, ma'rifiy qarashlari juda mufassal ifodalangan. Bu risola olimning yakunlay olmagani asarning birinchi qismidir. Asar to'liq bo'lmaganligi uchun uning mazmuniga ko'ra tadqiqotchilar «Tarix», va «Mang'it amirlari biografiyasi» nomlarini qoldirishgan.

O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida olimning tarix, falakiyot, jug'rofiya va boshqa fanlarga oid yigirmaga yaqin asarlari saqlanmoqda. Donishning "Navodir al-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az Amir Doniyol to asri Amir Abdulahad" (Amir Doniyoldan to Amir Abdulahadgacha bo'lgan Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai hollari) asarlari uning ilmiy-adabiy merosida asosiy o'rin egallaydi. Bu asarlarda muallifning falsafiy, siyosiy va tarixiy qarashlari o'z aksini topgan. "Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mang'itiya" deb ham nomlanuvchi keyingi asarini umrining oxirlarida, ya'ni XIX asrning 90-yillarida yozib tugatdi. "Tarixiy risola" ko'plab qiziqarli va muhim ma'lumotlarga boy. Masalan, mamlakat iqtisodiyini rivojlantirish uchun taklif etilgan loyiha, Buxoro va uning atrofini suv bilan ta'minlash haqidagi fikrlar, Rossiyaga qilgan sayohati xotiralari shular jumlasidandir [6]. Bu asarda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmdorlari, ularning davlatni boshqarishda yuritgan siyosatlarini, amirlik hududidagi aholining turmush tarzi va boshqa qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro tarixnavislik maktabi vakillaridan biri bo'lmish Mirzo Badi' Devonning "Majma' ul-arqom" asarida Buxoro amirligida ma'muriy, moliya, soliq tizimi, xazinadagi kirim va chiqimlar, vasiqa va arizalar tuzish qoida-tartiblari keng yoritgan. Mazkur asarda muallif amirlikdagi amal va mansablar, ular egalarining vazifa va majburiyatlarini bayon qilib, tadqiqotchilarga muhim ma'lumotlarni qoldirgan. "Majma' ul-arqom" sharqshunos A.B.Vildanova tomonidan maxsus o'rganilib, zarur izoh, so'zbo'shi va boshqa tadqiqotlar bilan qo'shib rus tilida chop etilgan [7].

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida yashab ijod etgan tarixnavislardan biri Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim bo'lib, u 1850-yilda Buxoroda tavallud topgan. U 20 yoshligidayoq o'zining ilmliligi bilan tanilib, Narpay va keyinchalik Ziyovuddin hokimining kotibi etib ishga olinadi. Oradan olti oy o'tgach Salimbek amir Muzaffarning farmoni bilan choyfurush savdogar qiyofasida rus ma'murlarining faoliyatini kuzatish va ma'lumot to'plash maqsadida Toshkentga jo'natiladi. Bu erda 12 yil istiqomat qiladi. Mirza Salimbek Buxoro inqilobiga qadar amirlikning yirik amaldori sanalib, turli yuqori vazifalarda xizmat qilgan. Inqilobdan keyin u Buxoroda tashkil etilgan "Anjumani tarix" (Tarix jamiyati)ga a'zolari tarkibiga kiritiladi. Mirza Salimbek 1930-yilda vafot etgan.

Mirza Salimbekning bir necha tarixiy, adabiy va diniy mavzuda tartib berilgan asarlari mavjud. Uning tarixiy asarlari "Kashkuli Salimiy" va "Tarixi Salimiy" nomlari bilan mashhur. "Tarixi Salimiy" 2009-yilda tadqiqot doirasida N.Norqulov tomonidan o'rganilgan va rus tilida nashr etilgan [8:6]. "Tarixi Salimiy"ning XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini o'rganishdagi ahamiyati beqiyosdir. Buxorolik tarixchi Mirzo Salimbek (1850-1930)ning "Tarixi Salimiy" asari Buxoro amirligida mang'itlar sulolasining so'nggi vakillari hukmronligi davri tarixiga bag'ishlangan. Unda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix, etnografiya, madaniyat, tarixiy geografiyaga oid turli ma'lumotlar va boshqa materiallar mavjud. Ushbu asar Surxon vohasida kechgan tarixiy voqealarni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, asarda muallif o'zi qatnashgan voqealar xususan Sherobod bekligi va qo'shni hududlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ma'lumotlarni bayon etgan.

Mirza Salimbek turli yillarda Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod va Shahrisabz beklklari hukmdori bo'lgan. Mirza Salimbek o'z asarida XIX asrning oxiri - XX asrning boshida Surxon vohasining tarixini, ayniqsa Boysun va Sherobod beklklarida boshidan kechirgan, ko'zi bilan ko'rgan, o'zi guvoh bo'lgan narsalar haqida chiroyli va hammaga tushunarli tilda yozgan. Muallif o'zi haqida qisqacha ma'lumot berib, o'sha davrda Boysun va Sherobod viloyatining ma'muriy tuzilishi haqida quyidagi tarixiy ma'lumot keltirib o'tadi: "Boysun viloyati besh amlokdan iborat bo'lib, maydoni to'rt farsaxni tashkil etar edi. Bundan tashqari, o'nta qishloqlarga bo'lingan 3 ta amlokliklar bo'lib, ular 10 farsaxgacha cho'zilgan edi. Yana Kiyik tog'da uchta amloklik bo'lib, ularning uzunligi 10 farsax edi". Shuningdek, mahalliy hukmdorlar, bek va amlokdorlar haqida ham ma'lumot beradi.

"Sherobod viloyatining uzunligi qibladan to sharqiy tomongacha olti farsax, shimoldan janubga qadar bo'lgan masofa etti farsaxni tashkil etardi. Viloyat besh amloklikdan iborat. Uning qibla, janubga qaragan tomonida Jayhun deb ataladigan daryo oqib o'tadi. Cho'chqaguzar bilan Pattakesar o'rtasidagi masofa etti farsax. Daryoning qirg'og'i bo'ylab turkman qabilalari istiqomat qiladilar. Ular yuqorida qayd qilingan amlokliklardan tashqarida yashasada, har yili belgilangan er solig'ini Sherobod hokimiga

to'lab keladilar." Asarda voha ahlining dehqonchiligi va uning o'ziga xos tomonlarini qalamga olgan. Umuman olganda, "Tarix-i Salimi" Buxoro amirligining 1860-1920-yillar tarixini o'rganishda muhim qo'llanma.

Shuningdek, Mirzo Salimbekning Boysun va Sherobodda bek lavozimida ishlagan davrida beklklarning boshqarilishi, qishloq xo'jaligi uchun ekinzorlarning kengaytirilishi, o'zi ham yangi erlarni o'zlashtirib katta daromad olgani, vohaning iqlimi, sug'orilish tizimi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirgan [9].

So'nggi Buxoro amiri Sayyid Olimxon (1910-1920) qalamiga mansub "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida amirning tolibi ilm bo'lgan chog'laridan, amirlik chog'i, bolsheviklarning Buxoroni zo'rlik bilan bosib olishi va vatandan uzoqda, muhojirlik yillarga qadar kechgan umri suronli va murakkab tarixiy davr ko'zgasida yaqqol namoyon bo'lgan [10].

Asarda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda, o'sha davrda, Buxoro davlati yigirma sakkiz beklkka bo'lingan. Chunonchi, hozirgi Nurota, Qorako'l, Chorjo'y, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Denov, Yakkabog' kabi joylarning har biri beklkdan iborat bo'lgan. Beklik bizning hozirgi iste'molimizda rayon(tuman)ga to'g'ri keladi.

Amir Olimxonning yozishicha, o'sha davrda Buxoro davlatiga qarashli erlar 225 000 kvadrat kilometr bo'lgan. Aholisi asosan o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat bo'lgan. Muallifning yozishicha, "Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podsholari mo'g'il odatlariga ko'ra to'shakka (oq kigizdan tayorlangan) ustiga tabarrukona o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni erdan ko'taradilar". Turkiy podshohlarni oq kigizga solib ko'tarish qadim-qadimdan qolgan an'ana bo'lgan.

Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi nafeiy" asarida XX asr boshlari Buxoro amirligiga oid muhim ma'lumotlarni beradi. Amirlikning davlat tizimi, idora usuli, 1918-1922-yillar davomida yuz bergan siyosiy voqealar guvoh tomonidan bayon qilingan [11]. Asarda Denov, Boysun, Sarijo'y, Sariosiyo, Sherobod shaharlaridagi siyosiy vaziyatlar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Sovet davrida Sharqiy Buxoro beklklari tarixiga bag'ishlab yaratilgan adabiyotlar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, bu davrda Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi tarixiga bag'ishlab, qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, lekin chop etilgan ilmiy tadqiqotlarda mavzuga g'oyaviy asosda bir tomonlama yondashilgan. Ularda Rossiya imperiyasi siyosatining Sharqiy Buxoro ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri asosan ijobiy baholangan. Shuningdek, asosiy e'tibor Buxoro amirligining markazidagi ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot tarixini yoritishga qaratilgan [12]. Bu tadqiqotlarda XIX-XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro beklklarida kechgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tarixi kam yoritilgan bo'lib, ularning ba'zilar o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini o'z ichiga qamrab olganligi bilan muhimdir.

Xulosa va takliflar. Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Sharqiy Buxoro beklklari tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Sharqiy Buxoro beklkining biz tadqiqot olib borayotgan davr tarixiga oid manbalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: mahalliy tarixchilar asarlari; arxiv materiallari; rus amaldorlari, harbiylari, sayyohlari, geograf olimlari tomonidan yozilgan ma'lumotlar, esdaliklar va hisobotlar;

Shuningdek, bu asarda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmdorlari, ularning davlatni boshqarishda yuritgan siyosatlarini, amirlik hududidagi aholining turmush tarzi va boshqa qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan;

Mirza Salimbek turli yillarda Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod va Shahrisabz beklklari hukmdori bo'lgan. Mirza Salimbek o'z asarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Surxon vohasining tarixini, ayniqsa Boysun va Sherobod beklklarida boshidan kechirgan, ko'zi bilan ko'rgan, o'zi guvoh bo'lgan narsalar haqida chiroyli va hammaga tushunarli tilda yozgan;

ADABIYOTLAR

1. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (история мангытских государей). / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л. М. Елифановой. – Москва: Восточная литература, 1962. –С.109
2. Мир Мухаммад Хикмат. Тазкират аш-шуаро. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, инв.№ 2727-76 а, б вв.
3. Дониш Ахмади Махдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангития. Тахия Далер. – Душанбе: Сарват, 1992. – 92 с.;
4. Хамраев А.Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX веке. - Т.: САГУ, 1948;
5. Ишанов А.И. Бухара в период перуой русской революции. - Т.: АН УзССР. 1955;
6. Османова и Л.М. Демидчик. – Душанбе: Таджикгосиздат, 1960;
7. Мирза Бади' Диван. Маджма' ал-аркам (предписания фиска, приёмы документации в Бухаре XVIII в.). Факсимиле рукописи, введение, перевод, примечания и приложения А. Б. Вильдановой. – Москва: Наука, 1981. – 122 (+198).
8. Мирзо Салимбек. Кашқўли Салимий таворихи мутақаддимин ва мутгаахирин /Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Йўлдошев. –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003. -344 б.
9. Мирза Салимбек . Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: ки. н. Н. К. Норкулов. Редактор перевода: д. ф. н. А. К. Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д.и.н. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент: Академиа, 2009. – 330 с.
10. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. /Форсийдан таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Абдусодиқ Ирисов. –Тошкент, 1991. Б. 1.
11. Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафеий"Т.: Академия. 2001. 2-бет.
12. Аминов А., Бабаходжаев А.Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. - Т.: Узбекистан, 1966; Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. - М.: МГУ, 1981.